21. D.F.Asadova,S.F.Fozilov,B.A.Mavlonov,A.F.G‘aybullayeva International Journal on Integrated Education.”Obtaining higher fatty alcohols based on low molecular polyethylene and their useage as lubricating additives for diesel fuels”. Volume 3, Issue XII, December,2020.p.44-47

22. Мавлонов.Ш.Б., Синтез депрессорной присадки на основе сополимеров стирола с алкилметакрилатов и их влияние на низкотемпературных свойств дизельного топлива.// Universum: технические науки. -Москва, 2022. - № 2(95). –С. 32-36. DOI-10.32743/UniTech.2022.95.2.1313

ISSN 3030-3907

YALPIZDOSHLAR OILASINING O‘RGANILISH DARAJASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.

Oltiboyeva Mavsuma G‘ulom qizi
Samarqand davlat tibbiyotuniversiteti

Annotatsiya. So‘ngi ma’lumotlarga qaraganda Respublikamizda 4500 dan ortiq gulli o‘simliklar turlari o‘sadi Bu turlar orasida dorivor o‘simliklarning ham munosib o‘rni bor. Q.X.Xaydarov Q.X.Xojimatov ma’lumotlariga ko‘ra Respublikamizning hududida 600ga yaqin dorivor o‘simliklar makon topgan . Sharqning buyuk tabibi Abu Ali ibn Sino takidlab o‘tganidek har bir o‘simlik albatta biror bir kasallikga shifo bo‘ladi.Faqat ularning izlab topish, har bir tomonlama o‘rganish lozim. Bu vazifani bajarish botaniklarni to‘g‘ridan to‘g‘ri faoliyatiga kiradi. O‘tgan asrda fan texnikaning tez suratlar bilan o‘sib borish sanoatning ham rivojlanishga zamin bo‘ldi.O‘z navbatida farmaseftika sanoatda ham yangilanishlar bilan bu anchagina resurslarni ham tejab qolish imkoniyatini beradi. Ko‘rsatadiki ko‘pchilik bemorlarda ayrim kimyoviy dorivor vositalarda nisbatan sezgirlik (alergiya) paydo bo‘ladi bu esa keyinchalik boshqa sog‘lom a’zolarni ham faoliyatiga salbiy tasir ko‘rsatadi. Ana shunday muammolarni keltirib chiqaradigan dori vositalarni iloji boricha tabiiy mahsulotlardan o‘simlik hayvon va mikroorganizimlardan tayyorlash zamon talabiga aylanadi. Bu yuksak vazifani bajarish uchun botaniklar, kimyogarlar, geograflar, xomashyoshunoslar shu sohani rivojlanishga birgalikda hissa qo‘shish lozimligini tushinib yetishdi. Hozirda dunyodagi jami dori vositalarning 30% ni o‘simliklardan tayyorlashgan preparatlar tashkil etadi.Aholi sonining ortib borishi dori vositalarga talabini ham keskin oshishga omil bo‘lib hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilganlarni hisobga olib o‘simliklardan dori preparatlarni tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda o‘tgan asrlarda ayrim dorivor o‘simliklar sanoat miqyosida yig‘ish avj oldi, natijada ko‘plab dorivor o‘simliklar noyoblashib hatto ayrimlari topib bo‘lmaydigan darajada yo‘qolib ketdi.

Kalit so‘zlar: dorivor vosita, allergiya, ferula, salviya.

Abstract: According to the latest data, more than 4,500 species of flowering plants grow in our Republic. Among these species, medicinal plants also have a worthy place. According to Q.Kh. Khaydarov and Q.Kh. Khojimatov, about 600 medicinal plants have found their home on the territory of our Republic. As the great physician of the East, Abu Ali ibn Sino, emphasized, each plant is a cure for some disease. It is only necessary to search for them and study them in detail. Fulfilling this task is directly related to the activities of botanists. The rapid development of science and technology in the last century has also led to the development of industry. In turn, the pharmaceutical industry, with its innovations, has also allowed it to save a lot of resources. It has been shown that many patients develop a relative

ISSN 3030-3907

sensitivity (allergy) to certain chemical drugs, which subsequently negatively affects the functioning of other healthy organs. It is becoming a necessity to prepare drugs that cause such problems from natural products, plants, animals and microorganisms, as much as possible. To fulfill this lofty task, botanists, chemists, geographers, and raw materials scientists have realized that it is necessary to jointly contribute to the development of this field. Currently, 30% of all drugs in the world are drugs prepared from plants. The increase in the population is also a factor in a sharp increase in the demand for drugs. Taking into account the above, great importance is attached to the preparation of medicinal preparations from plants. In recent centuries, the industrial collection of some medicinal plants has become widespread, as a result of which many medicinal plants have become rare and some have even disappeared to the point of being impossible to find.

Keywords: medicinal product, allergy, ferula, salvia.

Аннотация. По последним данным, в нашей Республике произрастает более 4500 видов цветковых растений. Среди этих видов достойное место занимают и лекарственные растения. По мнению К. Х. Хайдарова и К. Х. Ходжиматова, на территории нашей Республики произрастает около 600 лекарственных растений. Как подчеркивал великий врач Востока Абу Али ибн Сино, каждое растение является лекарством от какой-либо болезни. Необходимо лишь искать их и изучать подробно. Выполнение этой задачи напрямую связано с деятельностью ботаников. Быстрое развитие науки и техники в прошлом веке также привело к развитию промышленности. В свою очередь, фармацевтическая промышленность, благодаря своим инновациям, также позволила сэкономить значительные ресурсы. Доказано, что у многих пациентов развивается относительная чувствительность (аллергия) к определенным химическим препаратам, что впоследствии негативно влияет на функционирование других здоровых органов. Становится необходимостью, по возможности, производить лекарства, вызывающие такие проблемы, из натуральных продуктов, растений, животных и микроорганизмов. Для выполнения этой высокой задачи ботаники, химики, географы и специалисты по сырьевым материалам осознали необходимость совместного вклада в развитие этой области. В настоящее время 30% всех лекарств в мире — это препараты, приготовленные из растений. Рост населения также является фактором резкого увеличения спроса на лекарства. Учитывая вышесказанное, большое значение придается приготовлению лекарственных препаратов из растений. В последние столетия получило широкое распространение промышленное коллекционирование некоторых лекарственных растений, в результате чего многие лекарственные растения

ISSN 3030-3907

стали редкими, а некоторые даже исчезли до такой степени, что их невозможно найти.

Ключевые слова: лекарственный препарат, аллергия, ферула, шалфей.

Kirish

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

O‘zbekiston “Qizil kitobi” ga kiritilgan o‘simliklarning ham ayrimlari dorivor turlari hisoblanadi. Shunday ekan dorivor o‘simliklarni tabiiy zahiralaridan samarali foydalanish keng foydalaniladiganlarni bioekalogik xususiyatlarni har tomonlama o‘rganib madaniylashtirish chora tadbirlarni ishlab chiqish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston dorivor o`simliklarini o‘rganish tarixi bo‘yicha qisqa ma’lumotlarni XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘pgina tadqiqotchilar ishlarida uchratish mumkin. Inson qadim zamonlardan turli o‘simliklarni dorivor xususiyatlari to‘grisida ma’lumotlarga ega bo‘lgan va ularni qo‘llagan. Bu davr O‘rta Osiyoda dastlabki ilmiy ekspeditsiyalarni kirib kelishi bilan xarakterlanadi va unda turli mutaxassislikdagi olimlar qatnashgan: botaniklar, zoologlar, geologlar va vrachlar. O‘sha davr tadqiqotchilari O‘rta Osiyodagi o‘zlarining mutaxassisliklariga oid bo‘lgan masalalar bilan bir qatorda dorivor o‘simliklar bilan ham qiziqishgan.

Mahalliy aholidan so‘rash orqali ko‘p foydali o‘simliklarni o‘rganish va ularni qo‘llash to‘g‘risida ma’lumotlar to`plashgan. Bu ma’lumotlar turli maqola, gazetalarda e’lon qilingan. Bundan tashqari gerbariylarda u yoki bu o‘simlikni mahalliy aholi tomonidan ishlatilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

1820-yilda Nigri rahbarligida O‘zbekiston o‘simliklarini o‘rganish bo‘yicha Buxoro xonligiga ekspeditsya jo‘natildi. Uning tarkibida tabiatshunoslardan E.Eversman, O‘zbekistonning sahro qismi florasini o‘rgangan X. Pander va boshqalar bo‘lishgan [4,7,29].1841-yilda Buxoroga injiner Butinov ekspedetsiyasi bilan naturalist.A Isman sayohat uyushtirdi. Ammo Buxoro ekspedetsiyasida Nigri va Leman foydali va dorivor o‘simliklar to‘g‘risidagi materiallari tor va yuzaki edi.

O‘rta Osiyo dorivor o‘simliklari xom ashyosi bo‘yicha izlanishlar tarixining birinchi varaqlari talantli botaniklardan I.G. Borshovga tegishlidir. U o‘zining izlanishlarini O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishidan oldin boshlagan I.G.Borshov Rossiya fanlar akademiyasi tomonidan Orol Kaspiy past tekisligida botanik tadqiqotlar o‘tkazish uchun jo‘natildi. U katta miqdorda Sirdaryo havzasi va Orol dengizi o‘simliklariga oid qimmatli materiallar to‘pladi. I.G.Borshovning O‘rta Osiyoga tashkil etgan ekspeditsiyasida [16] Ferula turkumini o‘rgangan. U tomonidan qatron beruvchi ushbu turkumning muhim dorivor vakillari to‘g‘risidagi maqola nashr etilgan. U ildizida ko`p miqdorda qatron tuplovchi Ferula Schair Barszni fanga kiritdi. Farmatsiya magistri R.Palm Peterburgda O‘rta

ISSN 3030-3907

Osiyo dorivor o‘simliklari to‘g‘risida o‘qidi va 1871-yilda mineral, o‘simlik va hayvon kelib chiqishiga ega dorivor moddalar to‘g‘ridagi ma’lumotlarni beruvchi ishini nashir etdirdi.

1866-yilda I. Kovalevskiy «Tabiatshunoslikni sevuvchilar jamiyati» jurnalida Turkiston xalq tabobatida qo‘llanuvchi o‘simliklari to‘g‘risida ish chop etildi. 1871-1873-yilda «Туркестанские ведомости» gazetasida I.Krauzening ilmiy meditsina va mahalliy aholi tomonidan ishlatiladigan o‘simliklarga bag‘ishlangan bir necha maqolalari nashr qilindi.

I. Kirebskiy 1874-yilda O‘rta Osiyo florasining ayrim vakillarining foydali xususiyatlari haqida to‘g‘ri ma’lumot berdi. A.P. Fedchenkoning kitoblarida O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekistondagi dorivor o‘simliklari to‘g‘risida ma’lumotlarni topamiz. Mahalliy aholi orasida so‘rov o‘tkazish yo‘li bilan A.P. Fedchenko qator yovvoyi holda o`suvchi o‘simliklar va ulardan foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar oldi. Anenkov – Ботанический словарь [13] kitobida Salvia submutica o‘simligini va uning o‘zbekcha nomini “bangidevona” deb keltirildi, ammo bu nom o‘simlikka to‘g‘ri kelmaydi. O‘zbeklar bangidevona deb Datura stramoniumni, aytishadi u zaharli o‘simlik hisoblangan, iste’mol qilganda «esdan og‘dirishi» nazarda tutgan xolda aytib o`tgan.

Keyinchalik bu o‘simlikni mahalliy aholi tomonidan nomlanishi ham aniqlandi. O‘zbeklar uni ko`kaparang deb atashadi va mahalliy aholi tomonidan dorivor o‘simlik sifatida iste’mol qilishadi. Tabiblarning ta’kidlashicha o‘simlik barglaridan tayyorlangan damlama gulafshonni (ekzema) davolashda va bachadondan qon ketishini to‘xtatishda ishlatiladi [22,27,30].

Tojiklar unga xorak, ba’zan unga panj so‘zini qo‘shishadi va panjxorak deb atashadi. Panj- besh, xorak-tikancha ma’nosini beradi. Bu nom gul kosachasining tuzilishidan kelib chiqqan, chunki beshtishli kosachasi 5 ta tikancha bilan tugaydi. [20].

1880-1881-yilda vrach A.Y. Regil O‘rta Osiyoga ko‘p sayohat uyushtirgan, ayniqsa Hisor, Zarafshondan ko‘p dorivor o‘simliklar to‘plangan. Dorivorlik xususiyatlari ko‘rsatilgan bu kolleksiya Botanika bog‘ining muzeyiga berilgan.

1882-yilda. I.V.Slyunning «Xalq tabobatini o‘rganish materiallari» paydo bo‘ladi. Unda xalq tabobatida qo‘llaniladigan ayrim o‘simliklardan foydalanish haqida ma’lumotlar berilgan. Bu ishda Salvia inebrians haqida ma’lumot berilgan va uning arabcha nomi Basulbeasch (bozulbang) keltirilgan. Uning ta’kidlashicha mahalliy aholi bu o‘simliklardan mast qiluvchi aralashma tayyorlashgan (uni maydalab, shakar va asal bilan qaynatishgan) [24].

V.P.Kamorov Zarafshon daryosi havzasini tadqiq etib, Zarafshon tog‘ sistemasidan foydali o‘t o‘simliklar bo‘yicha material to‘plagan. Uning ichida 26 ta dorivor o‘simlik va ulardan foydalanish to`g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

ISSN 3030-3907

Birinchi jahon urushi davrida Rossiya meditsinasining xom-ashyosi to‘liq chegara orti mamlakatlariga bog‘liq edi. Bu urush mamlakatda dorivor ochlikni keltirib chiqardi va podsho hokimiyat oldiga dorivor o‘simliklarni boshqarishda sanitar va evakuatsion qismining maxsus tashkilotini tuzish zaruriyati masalasini qo‘ydi. Uning vazifalariga madaniy va yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simlikni o‘rganish masalalari, ularni tayyorlash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish kiritildi. 1916-yilda dori tayyorlash ishini rivojlantirish tarixida yovvoyi holda o‘suvchi dorivor florani o‘rganish uchun ekspeditsiyalar uyushtirildi.

A.P.Fedchenko [5], V.I.Lipskiy va V.A.Dubyanskiylarning ekspeditsyalari O‘rta Osiyoda ishladi. Ular uch otryadga bo‘lingan edi. A.P.Fedchenko boshchiligidagi 1 otryad Kaspiy orti viloyatining Ashxabod uyezdini va Kopettog‘ rayonini tekshirdi. Buxoro, Termiz, Saray, Kuhitang, Panjning o‘rta oqimini va Darvoz rayonlarini tekshirdi. Bu otryad asosan e’tiborini mahalliy dorivor o‘simliklarni o‘rganishga qaratgan edi.

V.A. Dubyanskiy rahbarligi ostidagi 2 otryad Kaspiy orti mintaqasi Marv uyezdi Krasnovodsk uyezdini tekshirdilar. Bu otryad tomonidan qimmatbaho dorivor o‘simliklarning sahro tipidagi changalzorlari topilgan.

V.I. Lipskiy rahbarligidagi uchunchi otryad Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ishladi. Ular tomonidan sahro va tog‘oldi qismlarida uchrovchi dorivor o‘simliklarni turli turlari aniqlandi.

E’lon qilingan hisobotda muallif katta e’tiborini, tabiblar qo‘llovchi mahalliy o‘simliklar va mahalliy bozorlarning dorivor mahsulotlariga qaratdilar.
Ko‘rsatilgan barcha tadqiqotlar nafaqat O‘rta Osiyo dorivor o‘simliklarini rasmiy ravishda tanishishga, balki mahalliy aholining dorivor o‘simliklarni qo‘llashini bilishga imkon berdi [31].

Bu vaqtga kelib A.A. Dimvskiyning O‘rta Osiyodagi 27 tur dorivor o`simlik haqidagi maqolasi e’lon qilindi.

A.A. Dimvskiy birinchi bo‘lib Toshkent viloyati sharoitida dorivor o‘simliklarni yetishtirish borasida tajribalarni o‘tkazdi. Shundan keyin O‘rta Osiyoda dorivor o‘simliklarni o‘rganish ma’lum vaqt to‘xtatiladi.

Keyinchalik dorivor o‘simliklar xom-ashyosi muammosi barcha xalq xo‘jaligining turli sohasini chet elga qaramlikdan ozod etishga qaratilgan umumiy xom ashyo muammolarning bir qismi sifatida bayon etildi. Diqqat e’tibor markazida xom-ashyo asosida rus kimyo - farmatsevtika sanoatini yaratish; dorivor o‘simliklarni yetishtirish masalalari; bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari turadi.

O‘rta Osiyo dorivor o‘simliklar to‘g‘risidagi ishlardan A.P. Fedchenkoning [15] «Turkiston o‘simliklari ocherki» asarini ko‘rsatish mumkin. Bunda muallif 140 ta dorivor o‘simlik, ularning ilmiy va xalq tabobatida qo‘llanilishi va ularning tarqalishi bo‘yicha ma’lumotlarni beradi.

ISSN 3030-3907

I.V.Larin, B.K.Shyelkov, I.C.Kazbekov va boshqalar o‘zlarining «Janubiy-g‘arbiy Qozog‘istonning tabiiy ozuqalari» ishida 40 turga yaqin dorivor va texnik o‘simliklarni va ularni aholi tomonidan ishlatilishi haqida to‘g‘ri ma’lumotlar beradi. 1937-yilda S. Sahobiddinovning “O‘rta Osiyo florasidagi dorivor o‘simliklar” ma’ruzasining tezislari e’lon qilindi [24,29].

O‘simlik resurslari bo‘yicha birinchi O‘zbekiston ilmiy-tadqiqot konferensiyasining ishlarida I.I. Granitov «Dorivor va alkaloidli o‘simliklar» ma’ruzasi chop etilgan bo‘lib unda O‘zbekiston florasida dorivor-alkoloidli o`simliklari» asari nashr qilindi. Bu ishda muallif xalq xo‘jaligi uchun ahamiyatli o‘simliklarni O‘zbekiston sharoitida yetishtirish masalalari yoritgan.

Bu ko‘p sonli ekspeditsiyalar amaliy va nazariy jihatdan qimmatli materiallar berdi: qator yangi dorivor o‘siliklar, o‘simlik xom-ashyosi tayyorlash uchun yangi rayonlar aniqlandi. Aniqlangan o‘simliklar biologiyasi chuqur o‘rganildi va ularning bir qismi meditsinada qo‘llashi uchun tavsiya etildi. Ulug‘ Vatan urushi yillarida dorivor o`simliklarga mamlakatining rahbariyati va jamoatchilik tomonidan katta e’tibor berdi.

V.N. Vorishovlar «Yangi o`simlik xom ashyo qidiruvlari» asarida barcha botaniklarning dorivor o`simlik borasida tadqiqotlar yakunini chiqardi va nashr etilmagan bir necha ma’lumotlarni e’lon qildi. V.N. Vorishovning bu kitobi sobiq sovet ittifoqi dorivor o`simliklarini o‘rganuvchi adabiyotlarga qo‘shgan katta hissasidir.

1942-yilda akademik N.V. Setsin dorivor o`simliklarni o‘rganish bo‘yicha «Himoya xizmatida tabiiy o`simlik boyliklari» asari nashr etdi. Ulug‘ Vatan urushi yillarida O‘rta Osiyo Respublikalariga o`simliklar to‘g‘risida ko‘p sonli ishlar e’lon qilindi. O`zbekistonda S. Saxobiddinov «Mahalliy o`simliklar resurslaridan keng foydalanish», «O`simlik xom-ashyosini yig‘ishni va tayorlanishni tashkil etamiz» [17] va A.Y. Butkov, professor E.P. Korovin, professor B.K. Kalashnikov maqolalari shular jumlasidandir [13,17].

Butkov dorivor o`simliklar to‘g‘risidagi maqolalarida, O`zbekistonning ilmiy va xalq tabobatida ishlatiladigan 17 tur yovvoyi va madaniy o`simliklarni keltirdi.

Ivanova-Paravskay O`zbekistonning yovvoyi dorivor o`simliklariga bag‘ishlangan ishini chop etdi. Ish rasmlarga boy va dorivor o`simliklarni tayyorlanish borasida qimmatli qo‘llanma hisoblanadi.

Samarqandda 1927-yilda oliy o‘qiv yurti tashkil etilishi bilan professor N.A Merkulovich o‘zini botanikiga oid faoliyatini boshladi. U xodimlari va talabalari bilan birganlikda ekspeditsiyalarda bo‘lib, Zarafshon vodiysining foydali yovvoyi o`simliklariga oid materiallar to‘pladi.

ISSN 3030-3907

1935-yilda professor. N.A. Merkulovich va uning ikki nafar yordamchisi Fayziyev va Q.Z. Zokirovlar Zarafshon vodiysi o`simliklarini o‘rganish uchun ekspedisiya uyushtirdi. Natijada foydali o`simliklarga oid ma’lumotlar to`pladi.

Professor N.A. Merkulovich «Zarafshon tog‘lari g‘arbiy qismida bo‘lgan va mahalliy aholini o`simliklaridan foydalanishi to‘g‘risida katta materiallar to‘pladi. Muallif yozadiki ”Tabiatda inson hali madaniylashtirmagan boshqa turlarning yangi xususiyatlarini bilmaydi; ular o‘z navbatini kutib turibdi va balki xalq xo‘jaligining turli sohalarida ishlatish mumkin”.

1939-yilda M.G. Popov Samarqand universitetiga, Botanika kafedraga rahbar sifatida ishga kelib o‘zi atrofida Samarqandning yosh botaniklarini to‘playdi va Zarafshon florasi va o`simliklarini o‘rganish bo‘yicha katta ishlar boshlaydi [22,26].

1940-yilda Q.Z. Zokirov ekspeditsiyasi M.G. Papov T.A. Sergiyev va boshqalar ishtirokida katta gerbariy to‘planadi. Natijada «Zarafshon florasi materiallari» umumiyligi ostida qator ishlarni chop etadi.

Ular orasida Zarafshon daryosi havzasida ko‘pgina dorivor alkoloidli o`simliklar bor edi. Ulug‘ Vatan urushi yillarida Botanika instituti va Fanlar akademiyasi zoologiya instituti vitamin xom-ashyolari yangi manbalarini aniqlash va vitamin faolligini o‘rganish bo‘yicha katta ishlar olib borildi. Bu vaqtda O‘z SSR FA kimyo instituti va SamDU kimyo fakultetida qator tadqiqotlar olib borildi. M.M. Abramov va O.F. G‘oziyev Zarafshon vodiysi yovvoyi dorivor o`simliklarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqodlar o‘tkazdi, xalq va ilmiy tabobatda qo‘llaniladigan 187 tur dorivor o`simliklar aniqlandi. Toshkent farmatsevtika instituti farmakognoziya kafedrasida professor R.L. Xazanovich rahbarligida ”O‘zbekistonning ayrim dorivor o‘simliklarini o‘rganish” nomli monografiyasi nashr etildi. Keyingi yillarda Samarqand meditsina instituti ilmiy xodimlari professor I.E. Akopov rahbarligida lagoxilus turkumining ayrim turlarini qon to‘xtatuvchi va sedativ xususiyatlarini aniqladi. Ulardan biri hozirda dorixonalarda “lagoxilin”nomi bilan sotiladi.

Salvia turkuminig tabiiy zaxiralari ko‘p emas va ommaviy xom-ashyo tayyorlanishda tugashi mumkin. Shuning uchun Salvia biologiyasini o‘rganish asosida uning turlarini madaniy holda yetishtirish masalalari bir necha bor ko‘rildi. Bu borada SamDUning botanika kafedrasi katta ishlarni amalgam oshirmoqda. M.I. Ikramov lagoxilusning biologiyasi va ekologiyasini o‘rganish orqali bu o‘simlikni O‘zbekistonning shartli-sug‘oriladigan yerlarida yetishtirishni imkoniyatlari aniqlandi. Muallif tomonidan bu o‘simlikning biologiyasini o‘rganish asosida dastlabki agrotexnikasi ishlab chiqilgan [5,9,11].

ISSN 3030-3907

Keyinchalik professorlar E.I. Proskoryakov, M.I. Ikramov, N. Amirxonov, J.G. Kabulov, K. Xaydarovlar O‘zbekistondagi foydali o‘simliklarini o‘rganib ularni introduksiyalash sohasida katta ishlarni amalga oshirdilar.

Bu oila vakillari asosan bir yillik va ko‘p yillik o‘tchalar buta va daraxtsimon o‘simliklardir.

Ularning poyasi to‘rt qirrali barglari oddiy, qarama-qarshi joylashgan yon barglari yo‘q. Gullari barg qo‘ltig‘idan chiqadi. Bittadan ko‘pincha ikkiga ajralgan gajakchalardan iborat bo‘lib ularning ko‘rinishga nisbatan ularga qaraganda o‘xshash bo‘lgan bir qator jamlanmalari o‘z qimmatini yo‘qotmaslik uchun zudlik bilan quritiladi yoki namlik va issiqlik ta’sirida qizib tarkibiga biologik faol moddalar parchalanadi dorivor o‘simliklar qimmatini yo‘qotadi.

O‘simliklar xom-ashyolaridan tayyorlanayotgan dori-darmonlarga bo‘lgan talab va qoidalarga bo‘ladi. Ikki qarama-qarshi barg qo‘ltig‘idan chiqqan gullar o‘zaro birlashadi natijada doira to‘pgul vujudga keladi. Gulqo‘rg‘oni zigamorf besh orali kosachasi besh tishli ba’zan ikki labli ustki labi uch bargchali ostkisi ikkki labchali bo‘ladi. Gultoji odatda ikki labli ostkisi uch tojibargli ustkisi ikki tojibargli oralig‘i 4-ta yarmidagi 2-tasi oldindagi ikki oraliqdan uzunroq yoki ikkita bo‘lib qolganlari reduksiyalanadi Ca(3) Co(2+3) An+2 G(2) Gullari iyun iyul oylarida gullaydi mevasi bir urug‘li to‘rtta yog‘ochsimon mevachalarga ajralgan urug‘li ikkita mevachasi bargning qo‘shilishidan hosil bo‘lib avgust oyida pishib yetiladi. Oraliq iplari gultoji nayiga birikkan onaligi ikkita bargli tugunchasi ustki 2 uyli har bir uya ikki urug‘ kurtakli har qaysi urug‘ kurtak orasida juda barvaqt to‘siq hosil qiladi natijada tuguncha g‘ovza bandoshlarnikiga o‘xshash 4 bo‘lakchaga ajraladi. Gullari proterandriya, ya’ni otaliklari onaliklariga nisbatan tezroq yetiladi. Mevasi bir urug‘li 4 ta yong‘oqchasimon mevachalariga ajraladi yoki urug‘kurtakning hammasining taraqqiy etishi natijasida 3-1 ta yong‘oqchasimon mevachaga bo‘linadi. Urug‘ qariyib endospermsiz [24]. Murtagi to‘g‘ri tugunchasimonning tagidagi doira bo‘lib joylashgan. Shiradoni bor hashoratlar vositasida va xilma-xil yo‘llar bilan vositasiz changlanishga moslashgan. Yalpizdoshlar oilasi tizimguldoshlar oilasiga juda yaqin turadi. Murtak ildiz tizimguldoshlarnikiga o‘xshab pastga qaragan bo‘ladi. Biroq ginobaris poychali bo‘lishi bilan ulardan farq qiladi. Mevasining tuzilishi jihatidan garabandoshlarga yaqinlashadi, lekin ulardan murtak ildizi pastga qaraganligi bilan farq qiladi [30].

Yer yuzida yalpizdoshlar oilasining 210 turkumni 3500 [25] Osiyoda 53 turkumi va 462 turi O‘zbekistonda 40 turkumga mansub 206 turi uchraydi Nurota tog‘ tizmasidan bu oilaning 18 turkumini 37 ta turlari bo‘lib shulardan 20 tasi endemik. Bu oila vakillarining ko‘pchiligi dorivor o‘simliklar bo‘lganliligi uchun

ISSN 3030-3907

shuning uchun ko‘pchiligi kamyob endemik turlar bo‘lib 23 ta tur qizil kitobga kiritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Ali ibn Sino - “Tabiiy fanlar asoslari”, “Oddiy dorilar kitobi” Tosh .1956 c.45-49
2. Акопов.И.Э. –Кровоостанавливающие растения, (Кровоостанавливающие растения и другие лечебные свойства их). Ташкент, 1977, с.257.
3. Аненков. Н. –Ботанический словарь. СПБ, 1878 с.46-49
4. Бейдман И.Н Изучение фенологии растиний (В. КН Половая геобатаника) М-л т 2.с 333 – 336
5. Борщов И.Г материалы для ботаничиской географии Аралокаспийского края Зан Академии наук .М .7.1865.с.74-82
6. Бутков А Я растительность гор ходж-кургун-Ата Таш.комитет наук УзССР 1938 с.58-65
7. Лагохилус шисовый (Salvia gypceus vved) его биология и анатомо-морфалогический особинности Афтореферат хаид Дисс Самарканд 1978 с.28
8. Икрамов М.И-род лагохилус Средней Азии .Фан . Ташкент 1976 .с.28
9. Икрамов.М.И. – К изучению биологии и экологии зайцегуба кштутского. Бюлл. Флав. Бот. Сада АН СССР, вып .58, Наука, К.-Л., 1965, с. 93-96.
10. .Икрамов.М.И., Чиж М.И.–Содержание эферного масла в некоторых видах зайцегуба (сем. Labiatae). Растит. Ресурсы. Л. , 1967, том III,вып.2., с.244-248.
11. Икрамов М.И зайцегуб зарафшанский запасы. Тезисы докладов 1 Республиканской конференции молодыих ученых вопросы ботанечиских исследований в Узбекистане изд-во Фан Ташкент 1977. 2 стр.
12. Икрамов М.И. Нормуродов Х.Н Изучения запасов сирья *Salvia inebrianus L.*, *Achilliea mellifolium* L. в Самаркандской област Растительные ресурсы Т 23 вып 2. Санкт – Петирбург 2004 .с 184-185.
13. Кабринг О. 3 –краткая заменых о видах рода Salvia винде секции инермес сов. Бот.6. 1936 .с.154 -160.
14. Камаров О.Э – Новый представитоль рода Salvia bange из Средньй Азии . Бот 1938 т 23 вып 3 . с 217-218
15. Ларин И .В Кормовые растения СССР Растительное сры СССР 1957.с.154
16. Ларин. И.В., Агабабян И.М., Работнов Т.А. – Кормовые растения снекосов и пастбищ СССР. М-Л.: Сельхозлит. 1926 Т.3. 879 с.
17. Медведова Р.Г – Анатомическое исследовани зайцегуба вопосисмою Salvia hirtus .В.сб Лекарственные растения Казакстана Алма-Ата .1966.с.255

ISSN 3030-3907

18. Меркулович Н.А. – Растительность Западной части Зарафшанского хребта и гиссарского, примыкающего к Зарафшанскому в области Хозрет-Султата. Труды Узбекс. гос. ун-та, 7 Самарканд, 1936. С.45
19. Нормуродов Х.Н Лагохилуснинг халк ва илмий табобатда кулланиши халкаро Ибн Сино журналидан 2002 й с.12
20. Нормуродов Х.Н Икрамов М .И Юлдашева А.С.-Новые лекарстверрьй растиния - зайцегуб кштутский и зайцегуб зарафшанский Ташкент Мехнат 1992й с.45-46
21. Пулатова Т.П Анатомическое странинние травы Salvia inebrianus Аптечное депо .т 4 1959.с.110-112
22. Пулатова .Т.П Фармокологическое изучения некоторыс выдов лагохилуса Автореферат канд.дисс .Ташкент 1961 . с .21.
23. Сахобиддинов С .С –Дикорастущи лекарственные растения Средньй Азии -Ташкент 1948 -й.с.216
24. Серебрякова Т.И – Морфология вектащевных органов высших растений . Советская наука М 1952 .с. 390.
25. Тахтаджян А.Л. –Система и филогения цветковых растений. Семество *Labiatae (Lamiaceae*). М.-Л., 1966, с. 449-450.
26. Дугенко Б.А.Гербарий Туркестанскьй флоры . Т . 32 – вып .1. - .М . 1912 – с . 1 – 13.

ISSN 3030-3907